

**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE EFFECTIVENESS OF EDUCATIONAL
CLUSTER ACTIVITIES**
**СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ**
**TA'LIM KLASSTERLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Imamova Nilufar Asamutdinovna

**TDSHU, Xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi**

E-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18016700>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi ta'lim klasterlari doirasida sinergetik samaraning shakllanishi hamda uning klaster ishtirokchilari uchun o'zaro manfaatli natijalar yaratish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim, fan va ishlab chiqarish subyektlarining integratsiyalashuvi orqali innovatsion faoliyatning faollashuvi, raqobatbardoshlikning oshishi hamda sifatli ta'lim xizmatlarini shakllantirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Tezisdagi klaster yondashuvi asosida resurslardan samarali foydalanish, bilim va texnologiyalar transferi hamda inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются вопросы формирования синергетического эффекта в рамках образовательных кластеров и механизмов получения взаимных выгод всеми участниками кластера. Также, раскрывается роль интеграции образования, науки и производства в развитии инновационной деятельности, повышении конкурентоспособности и формировании качественных образовательных услуг. В тезисе обоснована значимость кластерного подхода для эффективного использования ресурсов, трансфера знаний и технологий, а также развития человеческого капитала.

Abstract: This thesis analyzes the formation of synergistic effects within educational clusters and the mechanisms through which mutually beneficial outcomes are generated for all cluster participants. It highlights how the integration of education, science, and industry contributes to the intensification of innovative activity, the enhancement of competitiveness, and the development of high-quality educational services. Furthermore, the thesis substantiates the importance of the cluster-based approach in ensuring efficient resource utilization, facilitating knowledge and technology transfer, and promoting human capital development.

Kalit so'zlar: ta'lim klasterlari, sinergetik samara, institutlararo hamkorlik, innovatsion faoliyat, raqobatbardoshlik, ta'lim xizmatlari sifati, inson kapitali.

Ключевые слова: образовательные кластеры, синергетический эффект, межинституциональное взаимодействие, инновационная деятельность, конкурентоспособность, качество образовательных услуг, человеческий капитал.

Keywords: educational clusters, synergistic effect, inter-institutional collaboration, innovation activity, competitiveness, quality of educational services, human capital.

Kirish

Milliy iqtisodiyotlar oldida hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlash kabi dolzarb masalalar kun tartibida ustuvor vazifa bo'lib turibdi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda ta'lim klasterlari kabi muhim institutsional tuzilma sifatida bir qancha muhim yechimlarni amalg oshrishi va samarali natijalarni keltirishi jahon miqyosi amaliyotida sinalgan sanaladi. Ta'lim klasteri ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ishlab chiqarish va boshqa manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligi asosida sinergetik samarani yuzaga keltiradi. Natijada har bir klaster a'zosi umumiy faoliyatdan manfaatdor bo'lib, innovatsion faoliyat rivojlanadi, raqobatbardoshlik oshadi va sifatli ta'lim xizmatlari shakllanadi. Shu bois ta'lim klasterlarida sinergetik samarani yaratish masalasi ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Asosiy qism

Ta'lim klasterlari faoliyati samaradorligi ularning integratsiyalashgan tuzilmasi, institutlararo hamkorlik darajasi va sinergetik samarani yuzaga keltirish qobiliyati bilan belgilanadi. An'anaviy ta'lim muassasalaridan farqli ravishda, ta'lim klasterlari ta'lim, ilm-fan, biznes, hukumat va turli ishlab chiqarish subyektlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asosida faoliyat yuritadi, bu esa, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Klaster samaradorligining muhim xususiyati — qo'shilgan qiymatning ortishi, ya'ni har bir ishtirokchining alohida faoliyatiga nisbatan umumiy natijaning yuqoriligi hisoblanadi. Shuningdek, bilim almashinuvi, innovatsion faoliyatning jadallashuvi, kadrlar tayyorlash sifatining oshishi va mehnat bozori talablariga moslashuvchanlik klaster samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Klasterlashdan samara qo'shni korxonalarning tashqi ta'siriga o'zaro javob berish natijasida yuzaga keladi. Iste'molchilar bilan ishlash amaliyoti va klaster ixtisoslashuvi sohasidagi tajriba almashish, logistikadan, risklardan hamda ishlab chiqarish masshtabidan tejam qilish, iqtisodiy sub'ektlarning zichligi, g'oyalar aylanishi va bilimlar migratsiyasi, texnologik hamkorliklarni yaratish asosida yakuniy natijada klasterlarda turli xildagi tranzaksion va ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi.

Ta'lim klasterini yaratish orqali klaster ishtirokchilari o'zaro ta'sir qilishning o'ziga xos hududiy-tashkiliy mexanizmini yaratadilar, mazkur mexanizm yuridik shaxs maqomini saqlab qolgan holda, ta'lim sohasidagi boshqa tashkilotlar bilan taqqoslaganda raqobatli ustunliklarga ega bo'lish uchun o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi. Mehnat bozorida huquqiy jihatdan mustaqil sub'ekt sifatida klaster ishtirokchilari o'z faoliyatini yo'lga qo'yish davomida shaxsiy manfaatlari yo'lida o'z maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Klasterning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorligi esa, qo'shimcha ustunliklar (qo'shimcha resurs)ga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlaydi.

Klasterdagi xarajatlarni kamayishi samarasi, odatda, umumiy muammoni hal etish maqsadida, ishtirokchilarning klasterga uyushishi, klasterlanishi natijasida bir qancha xarajatlarning, xususan, tranzaksion xarajatlarning kamayishiga turtki bo'ladi. Ushbu samara klasterdagi umumiy resursdan foydalanishdan olingan qo'shimcha aniq daromadning undan foydalanish huquqini olish xarajatlaridan oshib ketishi natijasida paydo bo'ladi. Klaster doirasida yagona axborot makoni orqali ma'lumot almashinuvining tezlashuvi klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni samarali va tezkor qiladi.

Ta'lim klasterlari ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning faoliyati yuqori texnologiyali, ilm ko'p talab qiladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Klasterning innovatsion ta'sirini baholash uchun natijalar va resurs xarajatlarining o'zaro bog'liqligi asosida innovatsion tizimlar samaradorligini tahlil qilish yondashuvini qo'llash mumkin: innovatsion mahsulotlarning innovatsion faoliyatga sarflangan xarajatlarga nisbati qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion tizim shunchalik samarali bo'ladi, bundan ko'rinadiki, klasterning innovatsion samarasi namoyon bo'ladi. Innovatsiyalar tarqalishini yengillashtirish va tezlashtirishda klasterning ijtimoiy muhiti alohida o'rin tutadi. Bu muhitga esa, ilmiy markazlar, universitetlar va korxonalarda faoliyat yurituvchi turli sohalar mutaxassislari jalb etiladi.

Xulosa

Ta'lim klasterlari doirasida sinergetik samaraning shakllanishi institutlararo hamkorlik va resurslarning integratsiyalashuvi orqali amalga oshadi. Har bir klaster a'zosi umumiy faoliyatdan o'zaro manfaat oladi, bu esa, innovatsion faoliyatning faollashuvi, raqobatbardoshlikning oshishi va sifatli ta'lim xizmatlarining yaratilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, klaster yondashuvi bilim va texnologiyalar transferi, resurslardan samarali foydalanish hamda inson kapitalini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Ta'lim klasterlarida sinergetik samarani yaratish nafaqat individual a'zolar uchun, balki butun ta'lim tizimi va iqtisodiy rivojlanish uchun strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Delgado, M. (2020). The Co-location of Innovation and Production in Clusters. *Industry and Innovation*, 27(8), 842-870. <https://doi.org/10.1080/13662716.2019.1709419>
2. Кушников Е.И. К вопросу об оценке общего синергетического эффекта кластера. *Региональные проблемы преобразования экономики*, №12, 2019. Стр. 210-217.
3. Т.С.Расулов, Қ.Б.Шарипов Миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини баҳолашга бўлган турли хил ёндошувлар таҳлили. "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журнали. №1, 2020 йил. 1-18 б.
4. М.Х.Камилова, Р.А.Мусаева Кластерная концепция экономического развития: теория и мировая практика. Учебно-методическое пособие –Т.: ГУП «Издательско-полиграфический дом инновационного развития», 2022 – 50 с.
5. Stephen Tallman. Knowledge, clusters, and competitive advantage. *Academy of Management Review* 2004, Vol. 29, No. 2, 258–271.